

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.08.04 RAQAMLI ILMY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROV FARXODJON ALLABERDIYEVICH

BARKAMOL AVLOD BOLALAR MAKTABLARI TO‘GARAK
MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARNI XALQ QO‘SHIQLARI
VOSITASIDA ESTETIK TARBIYALASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiq)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz– 2026

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Nazarov Farxodjon Allaberdiyevich

Barkamol avlod bolalar maktablari to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni xalq
qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash metodikasini takomillashtirish3

Назаров Фарходжон Аллабердиевич

Методические возможности использования народных песен в эстетическом
воспитании учащихся во внеурочной деятельности23

Nazarov Farxodjon Allaberdiyevich

Methodological possibilities of using folk songs in the aesthetic education of
students in extracurricular activities45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works49

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.08.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROV FARXODJON ALLABERDIYEVICH

BARKAMOL AVLOD BOLALAR MAKTABLARI TO‘GARAK
MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARNI XALQ QO‘SHIQLARI
VOSITASIDA ESTETIK TARBIYALASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiq)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ped4518 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tersu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rajabov To‘xtasin Ibodovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Mustafaev Shomurod Normo‘minovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Boltayev Rustam Kurbanbayevich

San'atshunoslik bo'yicha falsafa fanlari

doktori (PhD) dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.08.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 23-may soat_10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2344-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 14-mayda tarqatildi.

(2026-yil 13-mayda 20-raqamli reyestr bayonnomasi).



S.Q. Qahhorov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

F.X.Xazratov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.R.Hamroyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zaruriyati. Jahon miqyosida kuzatilayotgan globallasuv va integratsiyalashuv jarayonlari milliy ma'naviyat, madaniyat va san'at orqali o'quvchilarni estetik tarbiyalashga murakkab ijtimoiy muammolardan biri sifatida qaramoqda. Zero, globallasuv va integratsiyalashuv jarayonlarining asosiy talablaridan biri – xalqaro tajribalarni tanqidiy-tahliliy o'rganishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.¹ Jumladan, darsdan tashqari mashg'ulotlarda xalq qo'shiqlaridan foydalanishga oid xorijiy tajribalar xalq qo'shiqlarining neyropedagogik imkoniyatlaridan foydalanish, ya'ni musiqiy ritm va ohanglar vositasida o'quvchilarning kognitiv moslashuvchanligini oshirish hamda milliy identifikatsiyani emotsional intellektning tarkibiy qismi sifatida rivojlantirishga yo'naltirilgan konseptual yondashuvlarni amaliyotga joriy etishni ilgari surmoqda.

Dunyo zamonaviy musiqiy ta'lim paradigmasida Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiya tajribasida musiqa asarlarini o'qitishda milliy folklor elementlaridan foydalanish o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.² Xususan, K.Orf va Z.Kodaly konsepsiyalarining zamonaviy interpretatsiyalarida xalq qo'shiqlari o'quvchining "emotsional intellekti"ni rivojlantiruvchi asosiy determinant sifatida qaralmoqda. Ozarbayjon, Turkiya, Eron va Hindistonda olib borilayotgan tadqiqotlarda milliy musiqiy merosni ta'limga tatbiq etish orqali o'quvchilarda "madaniy immunitet"ni shakllantirish orqali milliy o'zlikni saqlab qolishning innovatsion modellari ishlab chiqilmoqda.³ Yaponiya va Janubiy Koreya ta'limida xalq qo'shiqlari "kognitiv etnopedagogika" doirasida o'rganilib, o'quvchilarda mantiqiy fikrlashi, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini faollashtiruvchi aksiologik vosita sifatida o'rganilmoqda.⁴ Xalqaro tajribalar tahlili, o'quvchilarni estetik tarbiyalashda xalq qo'shiqlaridan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini metodologik jihatdan takomillashtirish zaruriyatini asoslaydi.

Mamlakatimizda yangi qabul qilingan milliy o'quv dasturi ta'lim mazmuniga xalqaro tajribalarning foydali jihatlarini tatbiq qilish bilan bir qatorda milliy-estetik qadriyatlardan optimal tarzda foydalanish zaruriyatini yuzaga keltirdi. O'zbek xalqining milliy mumtoz kuy va qo'shiqlarini, musiqiy merosini o'rganish va kelajak avlodlarga yetkazishning eng samarali yo'llaridan biri, shubhasiz, bo'lajak musiqa o'qituvchisini bu jarayonga tayyorlash bilan bog'liq. Musiqiy ta'limda o'zbek milliy musiqasining ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda xalq qo'shiqlaridan foydalanish ajdodlarimizning madaniy merosini, ular ilgari surgan pedagogik g'oyalar va qarashlarini bugungi ta'lim tizimiga tatbiq etish, ta'lim mazmunini boyitish hamda milliy asosni mustahkamlash masalalarini dolzarb ijtimoiy-pedagogik

¹ Campbell, P. S. (2018). *Music, education, and diversity: Bridging cultures and communities* (4th ed.). Teachers College Press.

² Green, L. (2008). *Music, informal learning and the school: A new classroom pedagogy*. Ashgate Publishing.

³ Aksoy, B. (2015). Folk music and cultural identity in Turkish music education. *Educational Sciences: Theory & Practice*, 15(4), 1045–1056.

⁴ Koizumi, M. (2012). Cultural identity and music education in Japan. *International Journal of Music Education*, 30(2), 123–135.

muammolardan biri sifatida kun tartibiga qo‘ydi.

O‘zbekistonning bugungi kundagi madaniy hayoti milliy musiqa madaniyatini rivojlantirish borasida respublika va xalqaro ahamiyatga molik bo‘lgan tadbirlar – "Yaqin va O‘rta Sharqning og‘zaki ijodi professional musiqasi", "Sharq taronalari", "Maqom festivali" kabi yirik musiqa festivallari, ko‘rik-tanlovlar ta‘sis etildi. Shuningdek, 2017 yil 17 noyabrdagi "O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3391-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 noyabrdagi "Maqom san‘atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni tashkil etish to‘g‘risida"gi 940-sonli, 2020 yil 2 sentyabrdagi "Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati institutini tashkil etish to‘g‘risida"gi 536-sonli qarori oliy musiqiy-pedagogik ta‘lim oldiga yangi vazifalarni qo‘ydi. Mazkur dissertatsiya bevosita yuqoridan keltirilgan Farmon va qarorlarni ijrosiga yo‘naltirilgan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari" ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek xalq musiqasi musiqiy-pedagogik ta‘lim nuqtai nazaridan chuqur o‘rganilishi, ya‘ni uning xususiyatlari, janrlari va faoliyat ko‘rsatish sohalari, ta‘limiy va tarbiyaviy imkoniyatlari va boshqa jihatlari O.Safarov, F.Xalilov, M.Quronov, R.Qodirov, B. Mustafoyev, N.Turg‘unova, N.Kiyamov, Q.Panjiyev, R.Raximov, D.A.Jamolova, F. Karomatov, B. Karomatova, I.Rajabiy, R.Yunusov, T.B.G‘ofurbekov, I.Qudratov, va boshqa olimlar ishlarida tadqiq etilgan.

O‘zbek xalq musiqa asboblarining tovush chiqarish xususiyatlari va tayyorlanishi, shakl va tarixi T.S.Vizgo, A.N. Petrosyans ishlarida yoritilgan. T.Kuznesova, N.G. Shoxnazarov, N.S.Yan-Yanovskiy va boshqalarning ishlarida bastakorlik ijodida xalq qo‘shiq va kuylari, maqom musiqalaridan foydalanish masalalari o‘rganilgan. Xalq ijodiyoti va musiqachilari to‘g‘risidagi ma‘lumotni B.Sarimsoqov, S.Yo‘ldoshova, N.Urmatov, M.Sh.Axmedov, K.A.Olimboyeva, I.Akbarov, T.M. Mirzayev va T.Yuldosheva va boshqalar tomonidan yozilgan kitob, maqola va yozma suhbatlarda topish mumkin.

Musiqa folklori namunalarini to‘plash, nashr etish borasida ham e‘tiborga loyiq ishlar amalga oshirilgan. V.Uspenskiy, N.Mironov, F.Karomatov, M.Jo‘rayev, B.Matyoqubov, S.Ro‘zimboev, R.Yunusov, X.Ro‘zimboyevlar o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarida Xalq qo‘shiqlari namunalari hamda uning genezisiga alohida e‘tibor qaratganlar. Musiqa pedagogikasi sohasida ham tadqiqot muammosiga oid izlanishlar amalga oshirilgan. Ushbu muammoning ayrim jihatlari o‘rganilgan. O‘rta maktablarning o‘quv tarbiyaviy jarayonida xalq an‘analarini qo‘llash masalalari, xalq musiqasi, folklor va xalq pedagogika tamoyillari S.X.Temurova, I.B.Gashimov, J.Beshimov, X.Bobomirzaev, N.Toliboyev, M.A.Nabieva, U. Egamberdieva, D.Saipova, G‘.Qodirov, D.Ro‘ziyeva, M.Haydarov kabi olimlarning tadqiqotlarida tahlil qilingan. O‘quvchilarni tarbiyalash jarayonida xalq musiqiy ijodidan

foydalanishning ayrim jihatlari bilan M.X.Boltaboyev, M.B. Qosimova, A.Sh.Xasanov, B.Umarov, E.Fayzullayev, M.Jumaboyev, K.Isayev olimlar shug‘ullangan. Oliy va o‘rta maxsus musiqa o‘quv yurtlarining amaliyotida mavjud bo‘lgan dasturlar, metodik qo‘llanma va tavsiyanomalar O.Madayev, X.Lutfullayev, S.Yo‘ldosheva, O‘tashmatov, S.A.Aliyev, F.N.Vasilev, Q.Usmonov, R.Qosimov, A.I.Petrotyans va boshqa mualliflar tomonidan yaratilgan. Xalq musiqasini soha bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash borasidagi didaktik ahamiyati alohida e‘trofga loyiqligi bois bu muammo dunyo miqyosida o‘rganilib kelingan. B.X.Madrimov tomonidan «Xorazm musiqa folklori vositasida o‘quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari» tadqiq etilgan. T.I.Rajabov tomonidan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida Buxoro bolalar folklor qo‘shiqlarini o‘rgatishning ilmiy metodik imkoniyatlarni takomillashtirish (1-4-sinflar misolida), F.G.Nurullayev yosh avlodga sharqona milliy urf odatlarni singdirish, musiqa darslarida o‘quvchi – yoshlarga axloqiy – estetik tarbiya berish muomolari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan Y.B.Aliyev, I.V.Archajnikova, O.B.Bushnyakova, Z.S.Kvashina, O.M.Kuzmina, T.G.Mariupolskaya, S.P.Spivak, I.V.Shintyapina, T.I.Stepanovalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarda musiqiy ta‘limda milliy merosdan foydalanish masalalari tadqiq etilgan.

Xorijlik mutaxassislardan A.Shveysner, V.Frankl G.Sipin, W.Amitolarning tadqiqot ishlarida mazkur muammo yuzasidan izlanish olib borilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Musiqqa ta‘limiga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq qilish metodikasini takomillashtirish (2019-2023-y.y.)” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi barkamol avlod bolalar maktablari to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni xalq qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishdan iborat

Tadqiqot vazifalari:

darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni estetik tarbiyalashda xalq qo‘shiqlaridan foydalanish mazmunini ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilish;

darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni estetik tarbiyalashda xalq qo‘shiqlaridan foydalanish imkoniyatlari va shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

xalq qo‘shiqlari orqali estetik tarbiya samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi diagnostik mezon va ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish;

xalq qo‘shiqlari asosida darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni estetik tarbiyalashga yo‘naltirilgan ta‘lim modelini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni estetik tarbiyalashda xalq qo‘shiqlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish jarayoni tanlab olinib, tajriba-sinov ishlari uchun Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari barkamol avlod bolalar maktablaridan 233 nafar o‘quvchilar ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda xalq qo'shiqlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot jarayonida muammoga doir tarixiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ilg'or tajribalarni o'rganish, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat), pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'quvchilarni estetik tarbiyalashda xalq qo'shiqlaridan foydalanish mazmuni emotsional-idrokiy, aksiologik va faoliyatli-ijodiy mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi hamda mashg'ulot jarayonida badiiy-g'oyaviy va psixologik tahlil qilish; ijodiy interpretatsiya va jamoaviy ijroni tashkil etish; refleksiv baholash va estetik munosabatni shakllantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodik yechim sifatida ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilingan;

darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda xalq qo'shiqlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari badiiy-estetik idrok, emotsional madaniyat, ijtimoiy-ijodiy faollikni oshirish va milliy-madaniy muhit va estetik ta'lim makonini shakllantirishni ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlari ilmiy jihatdan aniqlashtirilgan;

xalq qo'shiqlari orqali estetik tarbiya samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi diagnostik mezon va ko'rsatkichlar tizimi mashg'ulot davomida "tanlash → tahlil → interpretatsiya → ijro → refleksiya" zanjirini ta'minlashga yo'naltirilgan emotsional ta'sirchanlik, badiiy idrok, ijodiy faollik, milliy-aksiologik munosabat ko'rsatkichlarini belgilovchi baholash darajalarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

xalq qo'shiqlari asosida darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni estetik tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'lim modeli estetik, milliy-aksiologik va badiiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik, psixologik va aksiologik komponentlar mazmuni bilan integratsiyalashgan milliy qadriyatlarni anglash, badiiy tafakkur va estetik didni o'stirishni ta'minlovchi innovatsion pedagogik vositalarni joriy etish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari respublika bakrakamol avlod bolalar maktablarining o'quv- tarbiyaviy jarayonida qo'llanishi mumkinligi, shuningdek, dissertatsiya materiallari metodik tavsiyanomalar va qo'llanmalar, nota xrestomatiyalarini yaratishda, pedagogika oliy ta'lim muassasalarning dastur va darsliklarini ishlab chiqish, amaldagilarini takomillashtirishda qo'llanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'yilgan muammoni hal etishga yaxlit va ilmiy metodologik yondashish, pedagogika sohasida mamlakatimiz va xorijda amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot metodlariga asoslanganligi, qo'llanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi; keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi; xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, olingan natijalar ishonchliligi Respublika va xalqaro ilmiy- amaliy anjuman

materiallari to'plamlari, OAK e'tirof etgan maxsus va xorijiy jurnallarda chop etilgan maqolalar e'lon qilinganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarini ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati tadqiqot ishining ilmiy xulosalari asosida olingan materiallarning dissertatsiya muammosi bo'yicha xorijiy hamda mahalliy tajribalar, ilmiy manbalarning nazariy tahlillariga asoslanganligi, keng qamrovli eksperiment natijalarining ilmiy tahlillariga asoslanganligida o'z aksini topgan. Tadqiqot materiallaridan sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, oliy musiqiy-pedagogik ta'limning mazmuni va metodikasini takomillashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishda, musiqiy ta'lim va tarbiyaga oid o'quv va metodik qo'llanmalar tayyorlashda, shuningdek, mazkur yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalari, asosiy qoidalari va tavsiyalaridan musiqiy-pedagogik ta'limda, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Musiqqa madaniyati" darslarida, barkamol avlod bolalar maktablaridagi o'quv jarayonlarida, musiqa o'qituvchilarining malaka oshirish kurslarida samarali qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Barkamol avlod bolalar maktablari to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash metodikasini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida: o'quvchilarni estetik tarbiyalashda xalq qo'shiqlaridan foydalanish texnologiyasi o'quv jarayonidagi gibrid ta'lim: an'anaviy ta'lim+raqamli amaliyot, "Peer-to-peer learning" (o'quvchilarning o'zaro ijodiy ishlarini tanqidiy mulohaza qilish) metodlaridan foydalanish hisobiga mashg'ulotlarni tizimli tashkil etishga doir xulosalardan Buxoro davlat universitetining "OT-F1-002-Yoshlarda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari" (2017-2020-y.y.) mavzusidagi innovatsion-tadqiqot loyihasini "Barkamol avlod maktab o'quvchilarini xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari" qismini bajarishda foydalanilgan. (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 23-maydagi 01/09-son ma'lumotnomasi), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-sonli buyrug'iga asosan 429-595 raqamli "Folklor – etnografik jamoalari bilan ishlash" darsligi nashr qilindi. Natijada, barkamol avlod maktablarida darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda xalq qo'shiqlaridan foydalanish mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishga erishilgan; darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda xalq qo'shiqlaridan foydalanishning metodik imkoniyati tinglash-aytish koordinatsiyasini mustahkamlash va professional ijro texnikasi shakllanishi uchun solo (yakkaxon) va jamoaviy (xor yoki ansambl), cappella (cholg'usiz) bilan ishlash jarayoni vokal va improvizatsion (erkin) musiqiy usullaridan ta'lim jarayonida foydalanilgan. (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 16-maydagi 02/07-1786/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, barkamol avlod maktablari o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari shakllantirilgan; barkamol avlod maktablarida o'quvchilarni estetik tarbiyalash modeli "Yor-yor", "Alla", "Navro'z" qo'shiqlarini o'rganish va tahlil qilish asosida estetik did, badiiy tafakkur, milliy g'urur, ovoz, ritm va sahna madaniyati

ko'nikmalari "Qo'shiqlar bayrami", "Bizning merosimiz" nomli tadbirlar orqali integratsiyalashga doir amaliy tavsiyalar "Turdosh cholg'ularni o'rganish" fortepiano ijrochiligida ilmiy-metodlarni rivojlantirish metodikasi nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Termiz davlat universiteti rektorining 2024-yil 29-aprel sanasidagi 226-PO' sonli buyrug'iga, 226-PO'-009 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada barkamol avlod maktablarida darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'qituvchi-o'quvchi faoliyatini modellashtirish orqali o'quvchilarning tayanch kompetensiyalari rivojlantirilgan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta nomdagi ilmiy ishlar chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta nomdagi ilmiy ish, jumladan, 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, uning matni 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan; dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot rejalari bilan aloqadorligi ochib berilgan; tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma'lumotlarning ishonchligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi va ularning sinovdan o'tishi bayon qilingan. Bundan tashqari, chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Barkamol avlod bolalar maktablari to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalashning nazariy asoslari**" deb nomlanadi. Bunda barkamol avlod maktab o'quvchilarini xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash metodik muammo sifatida, barkamol avlod maktab o'quvchilarini xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalashning mavjud ahvoli, barkamol avlod maktab o'quvchilarini xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari xususida fikr bayon etilgan.

Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy tomondan rivojlanishi va qaror topishi bevosita o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama mukammal barkamol shaxs etib tarbiyalab kamolotga yetkazishga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasiga kompleks munosabatda bo'lib, ish olib borish bugingi kunning asosiy va bosh masalalarining biri bo'lishi bilan birga uni umumxalq ishiga aylantirish zarurati tug'ilmoqda.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarining butun tarmoqlari va turlarining asosiy vazifalari bolada mavjud bo'lgan iqtidorni shakllantirish, rivojlantirish va bolaning har qanday qiziqishini, talablarini qondirishdan iboratdir.

Darsdan tashqari ishlar - bu dars va darsdan tashqari ta'lim muassasalarining o'quvchilar orasida olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy tadbirlari va ishlari bo'lib hisoblanadi. Darsdan tashqari ta'lim muassasalarida olib boriladigan ishlar – o'quvchilarning dars jarayonida o'zlashtirayotgan bilimlarini yana ham chuqurlashtirishiga, mafkuraviy va ma'naviy jihatdan tarbiya berishga, ahloqiy va estetik tarbiya me'yorlarini chuqur o'zlashtirib olishiga, jismoniy va aqliy tomondan kamolga kelishiga, mehnat va politexnika bilimiga bog'liq ko'nikmalarini mukammallashtirishiga, shuningdek bolalarni texnika va qishloq mehnat qo'shiqlari ishlari bilan yaqindan tanishtirishga, madaniy dam olishiga katta yordamini beradi.

Darsdan tashqari ishlar o'zining shakli, mazmuni bo'yicha bir-biridan alohida farqlariga ega emas, ammo ular har xil ikki tashkilotning birinchisi - darslarda, ikkinchisi - darsdan tashqari ta'lim muassasalarda olib boriladi.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalari - bu o'quvchilar uylari va saroyi; barkamol avlod bolalar maktablari; bolalar ekskursiya-turistik stansiyalari va bazalari; bolalar klublari va kutubxonalarini; yosh tomoshabinlar va qo'g'irchoq teatrlari, bolalar bog'lari bo'lib hisoblanadi. Ushbu muassasalar darslar bilan yaqindan aloqada bo'lib, bolalar orasida tarbiyaviy ishlarni olib boradi, sinf rahbarlariga metodik tomondan yordam beradi, ularning malakasini, pedagogik mahoratini orttirish tadbirlarini ishlab chiqadi. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarga tegishli ilg'or pedagogik ish tajribalarini umumlashtiradi va tarqatadi. Darsning pedagogik jamoasi esa qobiliyatli o'quvchilarni tanlab va darsdan tashqari ta'lim muassasalariga tavsiya qilib, ularning har xil to'garak va ommaviy-tashkiliy ishlarda muvaffaqiyat bilan qatnashib borishini ta'minlaydi. Darsdan tashqari ta'lim muassasalari o'z ish xususiyatlariga ko'ra maxsus yo'naltirilgan (belgili soha bo'yicha) va keng qamrovli (universal) muassasalarga bo'linadi.

Shunday ekan, o'quvchilarni estetik tarbiyalashda ularning axloqiy sifatlariga ham e'tibor beriladi. Zero, estetik tarbiya aql bilan hissiyotni uyg'unlashtirishdan iboratdir.

“Estetika” keng ma'noga ega bo'lib, shaxsni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga o'rgatadi. Estetika shaxs estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatining vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat bo'lgan uzluksiz jarayondir. Bu jarayon shaxsning yosh xususiyatlari va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqichlar hamda darajalarga ega.

Estetik tarbiya shaxsning jamiyat estetik madaniyatini egallab olishga bog'liq bo'lib, turli pedagogik vositalar, shakllar va yo'llar yordamida amalga oshiriladi. Jamiyat va ayrim shaxsning estetik madaniyati tushunchalari mavjud. Jamiyatning estetik madaniyati deganda. insoniyat butun rivojlanishi tarixi jarayonida to'plagan moddiy va ma'naviy qadriyatlari majmui tushuniladi.

O'quvchi shaxsining estetik madaniyati uning jamiyat madaniy merosini faol, ijodiy o'zlashtirishi natijasida hosil bo'ladi. Shaxsning go'zallik bilan o'zaro munosabati, uning ayrim sifatleri o'zaro ta'sir natijasida estetik madaniyati ham doimo o'zgarib turadi.

Estetik madaniyatning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Estetik ong.
2. Estetik munosabatlar.
3. Estetik idrok
4. Estetik qiziqish.

Estetik ong – ijtimoiy voqelik tabiat, san’at bilan bevosita muloqot jarayonida nazariyalar, qarashlar, badiiy ta’lim – tarbiya natijasida shakllanadi.

Estetik munosabat shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini bildiruvchi aqliy harakat orqali ifodalanadi. Bunda estetik idrok birlamchi vazifani o’taydi.

Estetik idrok - atrof muhitdagi buyum, narsa, hodisalarning estetik mohiyatini his qilish jarayoni.

Estetik qiziqish – o’quvchida estetik faoliyatga intilish, voqelik va san’at asarlarini estetik jihatdan o’zlashtirishga kirishishda ifodalanadi.

O’quvchilar estetik madaniyat darajasiga o’zlarini o’rab turgan tevarak-atrofdagi narsa, hodisalar, kiyimlar, o’yinchoqlar, oila a’zolarining o’zaro samimiy munosabatlari yordamida hamda qo’shiq, musiqa tinglash orqali erishadilar. Musiqa madaniyati darslarida o’quvchilar qo’shiq aytish, ijrochilik, musiqa asboblari chalish kabi ko’nikmalarga ega bo’ladilar. Bunday vaziyatlarda o’quvchilar musiqa asboblari hamda atrof- muhitdagi kishilarga to’g’ri muomalada bo’lish maqsadida, o’zlari egallagan estetik madaniyat darajasini namoyish qiladilar. Buyuk alloma Forobiy musiqa asarlarining inson vujudi, ruhiyati, umuman, ma’naviyati bilan chambarchas bog’liq ekanligi, musiqa inson kayfiyatini o’zgartirishdan tashqari, uning ma’naviy qiyofasiga ta’sir etishini estetik jihatdan asoslab bergan. Umumiy o’rta ta’lim maktab o’quvchilarini aniq maqsadga yo’naltirilgan sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar orqali estetik tarbiyalashda Xalq qo’shiqlari muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

Ayrim tadqiqotlarda xalq musiqasi, maqomlari va qo’shiqlari, ularning tarbiya tizimida tutgan imkoniyatlari e’tirof etilgan bo’lsa-da, ularni amaliyotga joriy qilish juda sust ahvolda bo’lganligi aniq dalillar orqali tahlil qilindi. Bular:

- xalq musiqasi, xususan xalq qo’shiqlaridan yosh avlodning estetik tarbiyasida foydalanishga nisbatan e’tibor qaratilmaganligi;

- xalq qo’shiqlarining yoshlarni estetik tarbiyalashdagi tarbiyaviy ta’sir imkoniyatlari yetarli tadqiq etilmaganligi;

- oliy ta’lim sohasida xalq musiqasi, xususan xalq qo’shiqlari vositasida estetik tarbiyani tashkil etish borasida muayyan faoliyat mezonini ishlab chiqilmaganligi va shu maqsadga yo’naltirilgan ilmiy-amaliy va nazariy o’quv-tarbiyaviy ishlarni yo’lga qo’yilmaganligi;

- xalq qo’shiqlari vositasida estetik tarbiyani tashkil etish orqali ijobiy samaralarga erishish yo’llari, shakl, usul va metodlarining ishlab chiqilmaganligi;

- ta’lim-tarbiya sohasida milliy ma’naviy qadriyatlarimizga, shuningdek bunday qadriyatlar sirasida bebaho xazina hisoblanmish xalq qo’shiqlaridan foydalanishga qaratilgan aniq ilmiy-metodik tavsiyalar, qo’llanmalarining yaratilmaganligi bilan izohlanadi.

Hozirda oliy ta’lim sohasida kelajak avlodni tarbiyalashga xizmat qiluvchi mutaxassis o’qituvchilarni tayyorlashni zamonaviy talablar darajasiga yetkazish

masalasi oliy ta'lim DTS larida bosh vazifa qilib qo'yilgan. Shunday ekan, estetik tarbiya sohasida:

- estetik tarbiyaga xalqning milliy madaniyati, qadriyatlari, san'atiga tayangan holada yondashish;

- o'zbek xalq musiqa san'atining, shu jumladan xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini, o'ziga xos xususiyatlarini qamrab olgan dastur, darslik, metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish;

- barkamol avlod bolalar maktabi o'quvchilarni xalq musiqasi, xususan xalq qo'shiqlari yordamida estetik tarbiyalashni yaxlit holda, ya'ni dars va darsdan tashqari holda tizimli asosda yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bunda dars va darsdan tashqari faoliyat o'zaro bog'liqlikda bir-birini to'ldirib borishi zarur;

- xalq an'anaviy ijrochiligi bo'yicha maxsus ixtisoslik beruvchi fakultetlar tashkil etish, ularda milliy musiqa asoslarini o'rganishni yo'lga qo'yish lozim.

Hozirgi kunda o'quvchilarni xalq musiqasi, xususan xalq qo'shiqlari bilan yaqindan tanishtirib borishning eng maqbul yo'li, bu oliy o'quv yurtlarida faoliyat ko'rsatayotgan badiiy havaskorlik to'garaklaridir. Bu faoliyatda o'quvchilar san'atning turi xil ko'rinishlari bilan faol muloqatda bo'ladi, ularda go'zallikka va uni yaratishga xayrixohlik paydo bo'ladi. Bu ayniqsa maqsadli mashg'ulotlar jarayonida yanada samarali tarzda kechadi va fanlarning o'zaro aloqasini yo'lga qo'yishda zarur omil bo'ladi. Hozirgi kunda san'at bilan, uning eng ommaviy turi bo'lgan qo'shiq san'ati bilan deyarli har kuni muloqotda bo'lmaydigan kishini tasavvur qilish qiyin. Bunda radio va televedeniyaning roli beqiyosdir. Lekin qo'shiqni shunchaki tinglash bilan, qo'shiqlarni rejalashtirilgan izchil mashg'ulotlar jarayonida tinglash, ijro etish, u haqidagi kerakli ma'lumotlar bilan, mohir ustozlar bilan muloqot qilib borishning o'rtasida katta farq bor. Shuning uchun ham tadqiqotning ushbu qismida pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi badiiy havaskorlik to'garaklari faoliyati, ularda xalq qo'shiqlariga e'tibor, ulardan yoshlarni estetik tarbiyasida foydalanishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning izchil hamda maqsadga muvofiq olib borilishi ijobiy samaralar beribgina qolmay, dialektik va dinamik xususiyatga ega ekanligi asoslandi. Xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ta'sir imkoniyatlari ko'plab qo'shiqlar misolida tahlil qilindi.

Badiiy havaskorlik to'garaklarida xalq qo'shiqlari bilan ishlash, ular vositasida o'quvchilarni estetik madaniyatini shakllantirish borasidagi vazifalarning mohiyatini nazariy va amaliy jihatdan ochib berishga asosiy e'tibor qaratildi.


Qo'shiqlarning tarkibiy tuzilishi, musiqiyliigi, ijrosi, yoqimli ovoz, qo'shiq matnining g'oyaviy mazmuni haqidagi ma'ruzalar, suhbatlar, taniqli xonanda va hofizlar, mutaxassislar bilan uchrashuvlar muayyan maqsadli faoliyat bo'yicha samarali ish shakl va usullari sanaladi.

Xalq qo'shiqlari juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, ularga murojaat qilganda respublikamizning o'ziga xos hududiy ijrochilik uslublari, ularni o'ziga xos jihatlarini unutmaslik, etnografik va an'anaviylik holatlariga ehtiyotkorlik bilan yondoshish lozimligi, bu sohada ish olib boruvchi mutaxassislardan nafaqat kasbiy mahorat, ayni vaqtda milliy musiqa san'atimiz, milliy qadriyatlar, xalq an'analari mohiyatidan yaxshi xabardor bo'lishni taqozo etishi, shu o'rinda xalq qo'shiqlarining mavzulari (tarixiy, diniy, pand-nasihati, ishqiy-lirik, insoniy fazilatlarini tarannum etuvchi, mavsumiy va marosim kabi) ularning asosiy turlari

bo'yicha tasnifi keltirilgan. Xalq qo'shiqlarining tarmoqlari, janrlari, ko'p bo'lib, ularni yetakchi turlari bo'lmish yalla, ashula, katta ashula, lapar, terma, mehnat qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, allalar, bolalar folklor qo'shiqlari va mumtoz qo'shiqlarga misollar keltirildi. Ularning bir-biridan farq va o'ziga xosligi xususiyatlari ko'rsatib berildi. Tariximizning murakkab davrlarida yashab ijod etgan, o'zini san'atga baxshida etgan san'atkorlar, ular ijro etgan va yaratgan qo'shiqlari haqida, xalqimiz xotirasidan o'chib borayotgan qo'shiqlarni qayta tiklash, ularni xalqimiz madaniy xazinasiga yangicha ruh, ziynat va jilolar bilan qaytarish yuzasidan fikr-mulohazalar bayon qilindi.


Tadqiqotning ikkinchi bobi "**Barkamol avlod bolalar maktablari to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalashning metodik ta'minoti**" deb nomlanadi. Mazkur bobda barkamol avlod maktab o'quvchilarini xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalashning shakl, usul va vositalari, barkamol avlod maktab o'quvchilarini xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalashning metodik imkoniyatlari, barkamol avlod maktab o'quvchilarini xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash texnologiyalari haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Havaskorlar bilan ishlash murakkab va ko'p bosqichli ish bo'lib, bu jarayonda to'garak rahbarlari doimo ijodiy izlanishda bo'lishi, dadillik bilan yangi-yangi metod va texnologiyalar asosida ish yuritishi, ulardan yuqori samaradorlikka ega bo'lganlarini tanlab borishi lozim bo'ladi. Bu o'rinda birinchi navbatda xalq qo'shiqlarini tanlab olinishiga qo'yiladigan pedagogik talablar mazmuni belgilandi. Chunki, qiziqarli va mazmundor, tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega bo'lgan qo'shiqlar namunalari talabalarda milliy ma'naviy qadriyatlarimizga, ya'ni xalqimiz tarixi, tili, madaniyati, san'ati, urf-odatlariga mehr-muhabbat bilan qarash, qadrlash, hurmat qilish, avaylab-asrash tuyg'ularini shakllantirishga olib keladi.



1-rasm. O'quvchilarga musiqa madaniyati darslarida taqdim etiladigan materiallar

Tadqiqot davomida mashg‘ulotlar olib borish uchun tanlanadigan xalq qo‘shiqlarining turli mavzu, janr, xarakter, hududiy ijrochilik uslubiga xosligi, qanday holatlarda ijro etilishi, matni, kuyi o‘rganilishi va o‘zlashtirilishi jihatidan yengil yoki murakkabligi kabi xususiyatlariga alohida e‘tibor bilan yondashish ijobiy samaradorlikka erishishning omillari ekanligi asoslandi.



2-rasm. Barkamol avlod bolalar maktablari to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni xalq qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayon modeli.

Bunday repertuar tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1. Xalqimizning asrlar sinovidan o'tib kelayotgan, umuminsoniy g'oyalarni tarannum etuvchi, didaktik xarakterdagi, shuningdek sevgi, vafo, kasb-hunar, mehnatni ulug'lovchi asarlarga keng o'rin berish.

2. Xalq tarixining muhim bosqichlarida yaratilgan, kurashchan, jasoratga chorlovchi, mardlikni, ona yer, muqaddas vatanni madh etuvchi asarlar.

3. Axloqiy poklik, halollik, sahiylik, oliyjanoblik, to'g'ri so'zlik, hurmat va izzat qilish, kamtarlik, shuningdek pand-nasihat va diniy qo'shiqlarni o'rganish.

4. Tinchlik va barqarorlikni tarannum etuvchi badiiy kompozitsion qo'shiqlar turkumlarini ham o'rni bilan o'rganish.

5. Ona tabiatga mehr-muruvvatni oshiruvchi, uni go'zalligini kuylovchi asarlarga e'tibor berish.

6. Tanqidiy, hajviy, kishilardagi salbiy illatlarni fosh etuvchi, shuningdek hazil qo'shiqlarni ham nazarda tutish.

7. Hayotimizda keng nishonlanadigan umumxalq bayramlari (Navro'z, Mustaqillik, xotin-qizlar, yangi yil) shuningdek, turli kasb bayramlari va turli sanalar bilan bog'liq qo'shiqlarni ham kezi kelganda ijro etish uchun tayyorlab qo'yish;

8. Repertuarda yakkaxon, juft bo'lib hamda ko'pchilik bo'lib ijro etiladigan namunalar (janr)ga e'tibor berish.


Xalq qo'shiqlari biz tanlagan va ish olib borgan pedagogik tadqiqotning tarbiya vositasi bo'lganligi uchun ham uning mazmuni xalq musiqiy xazinasidan ta'kidlab o'tilgan mezonlar asosida saralab olingan namunalarda o'z isbotini topdi.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashni tashkil etish ko'p jihatdan samarali ish shakli va usullariga bog'liqligi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida suhbat, savol-javob, munozara va bahslar, hikoya, tushuntirish, namoyish etish, tinglash, tahlil qilish, ekskursiya, uchrashuvlar, ma'ruza-konsertlar, hisobot konsertlar berish, ko'rik-tanlovlar o'tkazish kabilardan unumli foydalanildi. Shuningdek, yangicha ish shakllarini qo'llanishiga yetakchi ahamiyat berildi.

Dissertatsiyada shunday tadbirlardan ikkitasini o'tkazish jarayonining mazmun va mohiyati atroflicha yoritib berildi. Bular: «Bir qo'shiq oqshomi» (Navro'z bayrami,) va «Mumtoz qo'shiq kechasi» (Qovun sayli) kabi tadbirlar bo'lib, ular bir-biriga o'xshamagan ikki uslubda tayyorlangan va o'tkazilgan. Muhimi, bu tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish jarayonida tarixiy, adabiy materiallarga keng o'rin berilgan, tadbirlarni kompozitsion qurilishiga alohida yondashilgan.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda xalq qo'shiqlaridan foydalanishda o'yin faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. O'yinlar, ularning inson taraqqiyotidagi o'rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan.


Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda xalq qo'shiqlaridan foydalanishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan bosqichlar (3-rasmga qarang):



3-rasm. Barkamol avlod bolalar maktablari to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalashda amalga oshirilishi lozim bo'lgan bosqichlar

“Ishbop o'yinlar”- faol o'qitish metodlaridan bo'lib, u real o'rganilayotgan oby'ektni to'g'ri anglash maqsadida tahsil oluvchining u yoki bu vaziyatni o'yin holida talqin qilishga qaratilgan usuldir.

Ishbilarmonlik o'yinlar keng tarqalgan o'yin metodlaridan bo'lib, ular mohiyati jihatdan ma'lum obrazlarga kirish, o'sha obrazga xos bo'lgan hissiyotlarni o'z boshidan kechirishni taqozo etadi. Shunday qilib ishbilarmonlik o'yinlari qo'llash sohalari nihoyatda ko'p. O'quv maqsadlarida kompyuterdan foydalangan holda qo'llaniladigan ishbilarmonlik o'yinlari o'quvchilarning hayotida to'g'ri mavqega ega bo'lishlari, o'zi istagan, orzu qilgan hayotiy vaziyatlarni yaratishga o'rgatadi va undaydi, eng asosiysi ishlab chiqarish jarayonida o'zini erkin muloqotga oson kirishuvchi shaxs, bilimdon mutaxassis sifatida namoyon qilishga zamin yaratadi.



4-rasm. Innovatsion texnologiya tamoyillari.

Xalq qo‘shiqlarida hayot badiiy ramzlar orqali aks ettiriladi va shu tufayli inson qalbida estetik his-tuyg‘ular, hayajonlar, ko‘tarinki kayfiyat, rahm-shafqat, shodlik, quvonch, g‘am-qayg‘u, hasrat, nafrat paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham xalq qo‘shiqlariga barcha yoshdagi kishilar birday murojaat qiladilar.

